

Uzbekistan Airways bilan navbatdagi media-tur

2022 7 Oktabr

Uzbekiston Airways aviakompaniyasi Amerikaning Boeing kompaniyasi hamda Dubai Turizm kengashi bilan hamkorlikda O'zbekistonning OAV vakillari va blogerlari uchun media-tur tashkil etdi. Media tur 7-10-oktabr kunlari Dubai shahrida bo'lib o'tadi. Ushbu tur davomida Boeing kompaniyasi vakillari bilan rasmiy uchrashuv ham tashkil etiladi.

Uzbekistan Airways Boeing kompaniyasidan 1996-yilda o'zining birinchi Boeing 767 havo kemasini qabul qilgandan beri ushbu kompaniya bilan hamkorlik qilib keladi. 26 yillik hamkorlik davomida Uzbekistan Airways aviaparki Boeing kompaniyasiga tegishli 14 ta havo kemasiga ega bo'ldi. 2021-yilning may oyida esa Uzbekistan Airways oltinchi Boeing 787 Dreamliner havo kemasini qabul qilib oldi.

Hozirgi kunda aviakompaniya Dubai, Nyu York, Istanbul, Seul va Moskva kabi shaharlarga Boeing 787 Dreamliner havo kemasida parvozlarni amalga oshirmoqda. Bundan tashqari, Uzbekistan Airways Boeing 767 va Boeing 757 havo kemalaridan Yevroosiyo va Shimoliy Amerika mamlakatlariga yo'lovchilarni yetkazish maqsadida foydalanadi.

Media-tur davomida aviakompaniya O'zbekiston-BAA yo'nalishiga ko'proq e'tibor qaratishni rejalashtirmoqda.

Bugungi kunda Uzbekistan Airways Toshkentdan Dubai shahriga haftasiga 6 marta – dushanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba va yakshanba kunlari muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirmoqda.

Takidlash lozimki, Farg'ona vodiysidan aviaqatnovlarni ko'paytirish maqsadida aviakompaniya 2022-yilning 30-oktabridan boshlab Farg'ona – Dubai – Farg'ona yo'nalish bo'yicha yangi aviaqatnovlarni yo'lga qo'yadi, parvozlarni haftada 2 marta – seshanba va yakshanba kunlari amalga oshiriladi.

Aviakompaniya 2022-yilning 31-oktabridan boshlab Toshket – Sharja – Toshkent yo'nalishi bo'yicha muntazam to'g'ridan-to'g'ri parvozlarni sonini oshirmoqda.

Aviaqatnovlar haftaning dushanba, payshanba va shanba kunlari bajariladi.